

PAPER

DILSHODI BARNONING “KELING, QIZLAR, CHALAYLIK DAF ILA SOZ” G’AZALI TAHLILI

Saidumarova Muxlisaxon Saidazimxon qizi^{1,*}

¹Qo’qon Davlat Universiteti, talaba

*saidumarovamuhlisaxon@gmail.com

Abstract

Ushbu maqolada Qo’qon adabiy muhitining yorqin vakillaridan biri Dilshodi Barnoning “Keling, qizlar, chalaylik dafila soz” g’azali tahliliga tortilgan. G’azalning mavzusi, tematik-kompozitsion, g’oyaviy- badiiy jihatlari va unda qo’llanilgan lafziy san’atlar yuzasidan ayrim mulohazalar keltirib o’tilgan.

Key words: Dilshodi Barno, g’azal, daf, Nodira, diyor, qo’shiq, yakpora.

Kirish

Dilshod Otin, Barno, Dilshodi Barno (taxalluslari; asl ism-sharifi Dilshod Rahimqul so’fi qizi),— shoir, ma’rifatparvar. Otasidan savod o’rgangan. Maktabdorlik qilgan — xotin-qizlarga xat-savod o’rgatgan. Anbar Otin Dilshod Otinning iqtidorli talabalaridan bo’lgan.

Dilshod Otin g’azal, muxammas, masaddas, chiston va boshqa bilan birga xotiranomalar ham yaratgan. Uning 91 ta o’zbekcha va 51 ta tojikcha she’ri, «Tarixi muhojiron» («Muhojirlar tarixi») badiiy-tarixiy asarining o’zbekcha va tojikcha 3 qo’lyozma nusxasi («Tazkirai Barno», «Sabot ul-bashar maa tarixi muhojiron» — «Inson matonati va muhojirlar tarixi», «Muntaxab al-ash’ori Barno» — «Barnoning tanlangan she’rlari») bizgacha yetib kelgan.

Keling, qizlar, chalaylik daf ila soz,
Bir osoyish zamonni chorlaylik boz.

Diyorimizni ta’rif aylamakka
Hamma maqsadni birga aylaylik soz.

Qo’shiqni Nodira she’rig’a bog’lab,
Bo’layluk sozig’a bizlar hamovoz.

Uvaysiy birla Mahzuna qoshida
Turayluk suhbat aylab birga damsoz.

G’azallar pardasini har qanoti,
Hayotlik ko’nglimizda etsa parvoz.

Kimiki misli ma’dan ersa rangin,
G’azallar husni ermas, balki pardoz.

Jamoli misra asli ersa, Barno,
O’qug’an odam aylar oncha e’zoz.

G’azal vazni:

-v- - / -v- - / -v- - / -v- -

Fo-i-lo-tun/Fo-i-lo-tun/Fo-i-lo-tun/Fo-i-lo-tun
Ramali musaddasi maqsur

O’qilishi:

Ke-ling-qiz-lar/cha-lay-lik-daf/i-la-soz,
Bir-o-so-yish/za-mon-ni-chor/lay-lik-boz.

Lug’at:

Daf – musiqa asbobi
Osoyish – tinchlik
Boz – yana
Hamovoz – birga kuylovchi
Damsoz – suhbatdosh, hamnafas
Ma’dan – asl za’mín, qimmatbaho narsa
Jamoli misra – misralarning(she’r satrlarining) go’zalligi

Nasriy bayon:

Qizlar keling daf sozini chalaylik,
Biz osoyish zamonni yana chorlaylik.

Diyorimiz ta'rifini aytib,
Hammamiz maqsadimizni birga aytaylik.

Nodira she'riga qo'shiqni bog'lab,
Biz ham uning so'ziga qo'shilaylik.

Uvaysiy va Maxzunaning yoniga borib,
Ularning suxbatini olib, birga hamovov bo'lib turaylik.

G'azallarining har bir misrasi, so'zi,
Hayotligimda hammaning ko'nglidan joy olib parvoz etsa.

G'azal faqat bezak emas,
Balki kim uning asl ma'danligini, qimmatbaho ekanligini
anglasa, u uchun aslida pardoz bo'ladi.

Barnoning misralarini go'zalligini bilsa, ma'nosiga tushunib
yetsa,
O'qigan odam uchun hurmat qiluvchi ancha ma'nosi bor.

Sharx va izohlar:

Dilshod Barnoning "Keling, qizlar, chalaylik daf ila soz..." matlali g'azali yakpora g'azal bo'lib, "soz, boz, soz, hamovov, damsoz, parvoz, pardoz, e'zoz" so'zlari bilan qofiyalangan yeti baytdan iboratdir. Yakpora g'azal — mazmunan bir butun g'oya atrofida qurilgan, har bir bayti bir-biriga bog'langan g'azal turidir. Odatda g'azallar har baytda alohida fikr bayon qiluvchi bo'ladi, lekin yakpora g'azalda barcha baytlar bitta asosiy g'oyaga xizmat qiladi.

Mazkur g'azal o'zbek mumtoz adabiyotining an'anaviy g'azal janrida yozilgan bo'lib, mazmunan ayol shoiralarning ijodiy birdamligini targ'ib qilish, milliy qadriyatlarni e'zozlash, vatanni madh etish g'oyalari bilan yo'g'rilgan. G'azal muallifasi tomonidan she'riyat vositasida badiiy uyg'unlik va ruhiy birlikni saqlash g'oyasi ilgari suriladi. Asarda ayol shoiralarning ijtimoiy-madaniy o'rni, adabiyotdagi hissasi yuksak baholanadi.

Shoira g'azalning ilk baytidayoq ayollarga murojaat etib, ularni birgalikda soz va daf chalaylik, ya'ni ijod orqali osoyishtalikni madh etishga chorlaydi. Bu chorlov jamiyatdagi ruhiy uyg'unlikni badiiyat orqali tiklash g'oyasiga asoslanadi. Ikkinchi baytda esa bu da'vat umumiy maqsad sari birlashishga xizmat qiladi — ya'ni diyorni madh etish, yurt tinchligi va badiiy hamkorlikni shakllantirish.

Keyingi baytlarda muallifa o'zbek adabiyotining zabardast ayol siymolari — Nodira, Uvaysiy, Mahzuna —ni yuksak hurmat bilan tilga olib, ularning she'riy merosini davom ettirish, ular bilan ma'naviy bir saflarda turishni orzu qiladi:

Qo'shiqni Nodira she'rig'a bog'lab,
Bo'layluk sozig'a bizlar hamovov.

Uvaysiy birla Mahzuna qoshida
Turayluk suhbat aylab birga damsoz.

Beshinchi baytda g'azallar parvozga o'xshatiladi, bu esa g'azalning ilohiy kuchga ega bo'lishi g'oyasini anglatadi. "Misli ma'dan ersa rangin" misrasida esa tashqi bezak bilan mazmun o'rtasidagi farq ochib beriladi — ya'ni she'riyat go'zalligi uning ichki mohiyatidir. Yakuniy baytda "Barno" taxallusi keltirilib, muallifa o'z she'rini e'tirofga loyiq sanaydi:

Jamoli misra asli ersa, Barno,
O'qug'an odam aylar oncha e'zoz.

Mazkur g'azal — o'zbek mumtoz she'riyati an'analarini davom ettirgan holda, ayol shoiralarning badiiy va ruhiy birligiga da'vat etuvchi asardir. Shoira do'stlik, mushoira va osoyishtalikni madh etib, Nodira, Uvaysiy, Mahzuna kabi buyuk ayol siymolarga murojaat qiladi va ular bilan bir safda turishni sharaflar deb biladi. G'azalda nafaqat she'riyatning go'zalligi, balki uning inson qalbiga ruhiy parvoz bag'ishlovchi kuchi tasvirlanadi. Asar sof aruz vazni — ramalda yozilgan bo'lib, o'zining silliq ohangdorligi bilan tinglovchi yoki o'quvchini sehirlab qo'yadi. Shoiraning bunday ijodi o'zbek adabiyotida ayol qalamining naqadar yuksak darajada bo'lishi mumkinligini yaqqol ko'rsatadi.

Badiiy san'atlar:

Tashbeh:

Kimki misli ma'dan ersa rangin.

Tashxis:

Hayotlik ko'nglimizda etsa parvoz.

Nido:

Keling, qizlar

Talmeh:

Qo'shiqni Nodira she'riga bog'lab

Kinoya:

G'azallar husni ema, balki pardoz

Istiora:

G'azallar pardasini har qanoti

Mubolag'a:

O'qug'on odam aylar oncha e'zoz.

G'azalning nazariy tahlili:

1. Tasvirlanayotgan kechinma obekti nuqtai nazaridan **tavsifiy** lirika.

2. Tasvirlanayotgan ichki kechinma egasi nuqtai nazaridan **avtopsihologik** lirika.

3. Mazmuniy tuzilishi nuqtai nazaridan **ijtimoiy - siyosiy** lirika

1. Matniy kompozitsiya:

1) band — 7

2) misra — 14

3) sarlavha — Keling, qizlar, chalaylik daf ila soz,

4) janr qaydi — g'azal

5) sanasi — XX asr 6) joyi — Qo'qon

2. Tematik kompozitsiya:

Tezis: Keling qizlar soz cholib, tinch zamonni chorlaylik.

Antitezis: Diyorumizni ta'rifini aytib, hammamiz maqsadimizni birga qilaylik.

Vositayi xulosa: G'azallar faqat bezak sifatida emas, balki inson qalbining chuqur his- tuyg'ularini ifoda etuvchi vosita.

Sintez: Jamol va go'zallik nafaqat tashqi ko'rinishda, balki insoniy fazilatlar va ma'naviyatda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Sharipova, D. (2020). O'zbek ayol shoiralari ijodida g'azal janrining o'rni. — "O'zbek adabiyoti va san'ati" jurnali, №1, 34–39.
- G'afurov, N. (2002). O'zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi nashriyoti.
- Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari antologiyasi, Toshkent: Tamaddun, 2022.
- M.Qodirova. (1972). Dilshod Barno. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.
- Ismatullayeva, M. (2015). Ayol shoira ijodi va uning badiiy xususiyatlari. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.

6. Karimov, E. (2005). O'zbek mumtoz she'riyati: Nazariy va amaliy masalalar. Toshkent: Fan.
7. <https://ilmlar.uz/shoira-dilshodi-barno-gazal-va-baytlari-tarjimai-holi/>
8. <https://journals.uz/wp-content/uploads/2020/12/philosophy-2020-1.pdf>
9. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Dilshodotin>